BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONANING HAMKORLIGI

Mirshokirova Gulchehrabonu Shuxrat qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
mirshokirovagulchehra@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ota-ona va o ‘qituvchining hamkorligi uchun kerakli omillar va unda kuzatilayotgan muammoli vaziyatlar keltirilgan. Bu muammolarni yechish uchun zarur bo‘lgan vazifalar keltirib o‘tilgan.Shu bilan birga ushbu mavzu asosida adabiyotlar ko‘zdan kechirilgan.Tadqiqotda ota-ona va ustozlar o‘rtasidagi muloqotning yetishmasligi, mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik, baholashdagi tushunmovchiliklar hamda pedagogik-psixologik savodxonlikning pastligi kabi qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang ‘ich ta’lim, pedagogik hamkorlik, ta’lim sifati, psixologik yondashuv, oila va maktab

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены факторы, необходимые для сотрудничества родителей и учителя, а также рассмотрены проблемные ситуации, наблюдающиеся в этой сфере. Приведены задачи, необходимые для решения данных проблем. Вместе с тем, в рамках этой темы проведен обзор литературы. В исследовании проанализированы такие трудности, как отсутствие общения между родителями и педагогами, неумение правильно распределять ответственность, недопонимание при оценивании, а также низкий уровень педагогико-психологической грамотности.

Ключевые слова:Начальное образование, педагогическое сотрудничество, качество образования, психологический подход, семья и школа.

ANNOTATION

This article presents the factors necessary for cooperation between parents and teachers, as well as the problematic situations observed in this process. The tasks required to solve these problems are outlined. At the same time, a review of literature on this topic is conducted. The study analyzes difficulties such as a lack of communication between parents and educators, the inability to properly distribute responsibilities, misunderstandings in assessment, and low pedagogical and psychological literacy.

Keywords: Primary education, pedagogical cooperation, education quality, psychological approach, family and school.

KIRISH

Hozirda boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi eng keng muhokama qilinayotgan muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu mavzu faqatgina boshlang‘ich ta’limning o‘zidagina muammo emas balki katta sinflar va universitetlarda ham muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Muammoning salbiy tomoni bo‘lgani bilan uning ijobiy tomoni ham mavjud. Albatta ba’zi ta’lim dargohlarida ushbu muammolar, ba’zilariga nisbatan kamroq kuzatilayotgani ham bejiz emas. Asosiy muammo nima ekani bu savolga javob beradi. Qanday tushunmovchiliklar kelib chiqmoqtaligi va uni hal etish uchun qanday chora tadbirlar qilinayotgani ommaga ma’lumdir. Eng asosiy muammo o‘qituvchi va ota-onaning kelisha olmasligi va muloqatni yetishmasligi kuzatiladi. Mas’uliyat jihatidan ham kelishmovchiliklar tug‘ilishi mumkin, ya’ni mas’uliyatni his etmaslik, e’tibor qaratmaslik, baholashdagi kelishmovchiliklar, faqat salbiy vaziyatlarda aloqaga chiqish va psixologik muammolar kelib chiqishi mumkin. Ushbu muammolarni sabablari va uning yechimlarni quyida ko ‘rib o ‘tamiz.

Ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasida kelib chiqadigan muammolar;

Mas’uliyatning yetishmasligi - ba’zi ota onalar farzandlarini ta’lim va tarbiyasini butunlay o‘qituvchilarga yuklab qo‘yadi.

E’tiborning pastligi- ham ota-ona tarafdan ham o‘qituvchi tomondan bolaga e’tibor berilmasligi ya’ni o‘qishda bolalar sonini ko‘pligio tufayli har bir o‘quvchining muammosiga e’tibor berilmasligi. Uyda esa ota onaning maqsadi iqtisodiy tomonga qaraganligi va bolaning ta’limi va tarbiyasiga e’tibor qaratmaslik.

Baholash va talablardagi kelishmovchiliklar - ota onalar ko‘pinga farzandlarining bilimini yuqori baholab o‘qituvchining pastroq qo‘ygan bahosidan qoniqishmaydi va o‘rtada nizo kelib chiqadi.

Farzandni boshqalar bilan solishtirish - ota onalar yoki o‘qituvchilar bolalarni bir biri bilan solishtirib, unda maktabga nisbatan qo‘rquv va nafrat uyg‘otadi.

Faqat salbiy vaziyatlarda o‘qituvchi yoki ota-ona bilan bog‘lanish.

Pedagogik va psixologik savodxonlikni pastligi - uyga vazifani bajarishda bolaga baqirish, uni qo‘rqishiga va psixologik buzilishga sabab bo‘lishi.

Ota onalar guruhlarida muammolar.

Bularni bari bir bilgan va bilmagan muammolar xolos.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turdaliyeva Xurshidaning *“Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligini mustahkamlash”* tadqiqotida bog‘chadan maktab muhitiga o‘tish bolada nafaqat aqliy, balki kuchli psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Ushbu o‘tish davrining muvaffaqiyati bevosita “O‘qituvchi-o‘quvchi-ota-ona” qay darajada mustahkamligiga bog ‘liq ekanligi aytib o ‘tilgan.[1]

Normurodova Saodat Musurmon qizining *“Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligi. Farzand muvaffaqiyatlari siri”* nomli tadqiqotida bir qancha olimlar fikri yoritib berilgan, bulardan: Vygotskiyning ijtimoiy-o ‘quv jarayoniga oida nazariyasiga ko ‘ra, bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. U ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni bolaning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida baholagan. Vygotskiy shunday deydi:"Bolalar bilimlarni faqat o‘zlari emas, balki kattalar bilan muloqot qilish jarayonida, ya’ni birgalikda o‘rganish orqali rivojlanadilar."[2] Fikrini ilgari surgan va bu fikrni qo‘llab quvvatlagan.

Yuldashev G‘ayratjon Ne’matjon o‘g‘lining “Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar va ota onalar o‘rtasidagi samarali o‘zaro hamkorlikning qonuniyatlari, tamoyillari, psixologik va pedagogik shartlari” tadqiqotida Tarbiyaviy birlik qonuniyati — bu oila va maktabning bola shaxsini shakllantirishdagi yagona maqsadga xizmat qiluvchi faol hamkorligi qonuniyatidir. Ya’ni, bolaning hayotidagi ikki asosiy muhit — maktab va oila — tarbiyaviy yo‘nalish, qadriyat va xatti-harakatlar bo‘yicha bir xil mezon va talablarga ega bo‘lishi kerak, degan fikr ilgari surilgan. Shu bilan birga bola ruhiyatida izchillik bo‘lishi uchun oila va maktab bir yo‘nalishda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Aks holda, bola turli “ikki dunyo” orasida ichki ziddiyatni boshdan kechiradi: maktabda boshqa qoidalar, uyda esa boshqa mezonlar amal qilsa, bola o‘zini kimga ergashishni bilmay qoladi.[3]

OLIMLAR FIKRI:

Jan Piage bolani *“kichkina olim”* deb atagan. Uning fikricha bola bilimlarni asosan atrof-muhitni mustaqil kashf qilishi kerak deb hisoblagan. U o‘rganishi kerak bo‘lgan narsalarni ushlab ko‘rishi, his etishi, buzib ko‘rishi kerak deb hisoblagan.

Jerom Brunner “skaffolding” atamasining muallifi.Bruner ota-ona va o‘qituvchini bolaning atrofida quriladigan *“qurilish havzalariga”* o‘xshatadi. Bola bino (bilim) tiklayotganda kattalar unga tirgak bo‘ladi, bino tayyor bo‘lgach esa bu tirgaklar olib tashlanadi. U ham ta’limda hamkorlik va dialogik muloqotni eng oliy omil deb hisoblagan.

Albert Bandura bolalar atrofdagi odamlarning (ayniqsa, ota-onalari va o‘qituvchilarining) xulq-atvori, gap-so‘zlari va harakatlarini *“kuzatish va ularga taqlid qilish”* orqali o‘rganishini ta’kidlagan. Agar ota-ona va o‘qituvchi o‘zaro hurmat va hamkorlik modelini ko‘rsatsa, bola ham hayotda muammolarni hamkorlikda hal qilishni o‘rganadi degan fikrni ilgari surgan.

TAVSIYALAR:

Mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlash: o‘quv yilining boshidanoq o‘qituvchi ota onalar bilan yeg‘ilish o‘tkazishi ular bilan tanishib chiqishi va ularning farzandlari haqida ma’lumotlar yeg ‘ichi kerak bo ‘ladi.Shu bilan birga ota onalarga o‘z

vazifalarini tushuntirishi lozim hisoblanadi. Masalan: o‘qituvchi dars o‘tadi va mavzuni tushuntiradi, ota ona esa uyda bola bilan birga vazifani bajaradi va nazorat qiladi.

Yagona axborot daftarini joriy etish: ya’ni har hafta oxirida ota onalar farzandlarining bajargan topshirilari va unga olgan ballarini ko‘rishadi xulosa va imzo chekishadi.

Faqat muammo emas, yutuq ham degan qoida: o‘qituvchi ota onaga farzandining faqat muammolari va xatolarini aytmaydi, uning kichik yutuqlari haqida xabar qiladi va ota-ona bilan iliq muloqot o‘tkazadi.

Reja sosida topshiriq: har bir topshiriq berilganda unga vaqtni belgilash va uyga vazifalarda ham vaqtni va rejani tuzib berish. Masalan: 8:00 dan 12:00 gacha bola maktabda bo‘lsa uyga qaytgandan so‘ng soat 19:00 ga qadar vazifani bajarib bo‘lishi va guruhga tashlashi lozim etib belgilanadi. Ota-onada ham farzandda ham reja asosida ish qilish va mas’uliyat shakllanadi.

Baholash va talablardagi nizolarni bartaraf etish: Ota-onaga va o‘quvchiga topshiriqdan qancha topsa 5 olishi va qancha xato qilsa 3 olishi haqida o‘quv yilini boshidanoq malumot berish.

Ota-onalar klubini tashkil etish: Maktab psixologi va o‘qituvchi yordamida oyda bir marotabaga seminar tashkil etish. Mavzularning asosiy qismi bolalarning kelajagi, ularga kerak bo ‘ladigan yordamlar, haqida suhbat olib borish. Ota onalar uchun har xil topshiriqlar berish. Masalan: farzandingizni uyda eng ko‘p aytadigan so‘zi, farzandingizning yoqtirgan taomi, hayvoni, buyumi, o‘yinchog‘i, kabi qiziqarli savollar to‘plami tuzib chiqilishi va ota onalarga taqdim etilishi.

Shunga o‘xshash bir qancha yechimlar yaratish ota-ona va o‘qituvchining orasidagi masofaga chek qo‘yadi. Doimiy tarzda ma’lumot ulashish va hamkorlik qilish ortib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ota-ona va o‘qituvchining hamkorligi farzand uchun muvaffaqiyatga olib chiquvchi eng katta qadamlardan biridir. Bolaning maktabga birinchi qadamini qo‘yganidan to uni yakuniga qadar davom etadi. Ota ona

farzandiga o ‘z uyida yordam bersa, o ‘qituvchi esa uni maktabda, ilm dargohida qo ‘llab quvvatlaydi.Farzandimiz – bizning kelajagimiz, davomchimiz va ertangi kunimiz. Uni komil inson qilib voyaga yetkazishda ota-ona va ustozlarning hamkorligi xuddi qanotli qushning ikki qanotiga o'xshaydi. Qanotlar teng ishlasagina, parvoz baland va xavfsiz bo'ladi. Keling, bolalarimizning baxtli kelajagi uchun birgalikda doimo bir tanu bir jon bo'lib harakat qilaylik!

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1.Xurramova sarvinoz Mamatqobil qizining ota-onalar va o‘qituvchining hamkorligi- ta’lim sifatini oshirish omili

2.Turdaliyeva Xurshidaning *“Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligini mustahkamlash”*

3.Normurodova Saodat Musurmon qizining *“Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligi. Farzand muvaffaqiyatlari siri”*

4.Yuldashev G‘ayratjon Ne’matjon o‘g‘lining “Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar va ota onalar o‘rtasidagi samarali o‘zaro hamkorlikning qonuniyatlari, tamoyillari, psixologik va pedagogik shartlari”

Foydalanilgan manbalar:

1. https://www.gowriensw.com.au/thought-leadership/vygotsky-theory
2. https://www.7education.com/blog/vygotsky-s-sociocultural-theory-how-do-we-apply-it-in-class
3. https://www.ebsco.com/research-starters/history/social-development-theory-vygotsky/
4. https://archive.org/details/mindinsocietydev00vygo
5. Internet Archive — The Psychology of Intelligence (Piaget)
6. Internet Archive — The Construction of Reality in the Child
7. Google Books — Mind in Society